



**O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING "YASHIL TRANSFORMATSIYASI":
IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

dotsenti v.b., Jiyanov Uktam Panjiyevich,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti
ORCID: 0000-0001-7711-6659
uktam.jiyanov87@gmail.com

Ilxomova Vazira Jasurbek qizi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
vaselinazira@gmail.com
ORCID: 0009-0006-2727-7132

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish jarayonining mohiyati va ahamiyati yoritilgan. Mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish, "yashil energiya" ulushini kengaytirish hamda qishloq xo'jaligida suvni tejovchi texnologiyalarni qo'llash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilingan. Shuningdek, iqtisodiyotning ushbu yangi modeli bilan bog'liq imkoniyatlar va to'siqlar o'rganilib, ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Maqolada xalqaro tajriba, davlat strategiyalari va investitsiya loyihalari misolida yashil transformatsiyaning istiqbollari atroflicha bayon etiladi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil transformatsiya, qayta tiklanuvchi energiya, barqaror rivojlanish, ekologik siyosat, yashil texnologiyalar, investitsiya, suvni tejovchi texnologiyalar, ekologik xavfsizlik, chiqindilarni qayta ishlash.

**"ЗЕЛЕНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ" ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: ВОЗМОЖНОСТИ,
ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ**

и.о. доцент, Жиянов Уктам Панжиевич,
Международной академии исламоведения Узбекистана,
Научно-исследовательский институт развития туризма
Ильхомова Вазира Джасурбековна
Международная исламская академия Узбекистана

Аннотация: В статье раскрываются суть и значение процесса внедрения принципов «зелёной экономики» в Узбекистане. Анализируется проводимая в стране работа по обеспечению экологической устойчивости, рациональному использованию ресурсов, расширению доли «зелёной энергии» и использованию водосберегающих технологий в сельском хозяйстве. Также изучаются возможности и препятствия, связанные с этой новой моделью экономики, и указываются пути их преодоления. В статье подробно рассматриваются перспективы «зелёной трансформации» на примере международного опыта, государственных стратегий и инвестиционных проектов.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленая трансформация, возобновляемая энергетика, устойчивое развитие, экологическая политика, зеленые технологии, инвестиции, водосберегающие технологии, экологическая безопасность, переработка отходов.

“GREEN TRANSFORMATION” OF THE UZBEKISTAN ECONOMY: OPPORTUNITIES, PROBLEMS AND SOLUTIONS

Acting Associate Professor, **Jiyanov Uktam Panjiyevich**,
International Islamic Academy of Uzbekistan,
Tourism Development Research Institute

uktam.jiyanov87@gmail.com

Ilkhomova Vazira Jasurbekovna
International Islamic Academy of Uzbekistan

Abstract: This article highlights the essence and importance of the process of introducing the principles of the "green economy" in Uzbekistan. The work being carried out in the country to ensure environmental sustainability, rational use of resources, expand the share of "green energy", and use water-saving technologies in agriculture is analyzed. The opportunities and obstacles associated with this new model of the economy are also studied and ways to overcome them are indicated. The article describes in detail the prospects for green transformation using international experience, state strategies and investment projects as an example.

Keywords: green economy, green transformation, renewable energy, sustainable development, environmental policy, green technologies, investment, water-saving technologies, environmental safety, waste recycling.

Kirish.

Yashil iqtisodiyot (yoki yashil iqtisodiy faoliyat, barqaror iqtisodiyot) atamasi XX asr oxiri–XXI asr boshlarida shakllana boshladi. Ushbu tushuncha global miqyosda kuchaygan ekologik va ijtimoiy muammolar: iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning qisqarishi, ekologik ifloslanish hamda biologik xilma-xillikning kamayishi borasidagi tashvishlar natijasida yuzaga keldi. An'anaviy iqtisodiy model ko'proq ishlab chiqarish va daromad olishga qaratilgan bo'lib, ko'pincha atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Britaniya akademiyasi prezidenti Lord Nicholas Stern: "Iqlim o'zgarishi dunyo ko'rgan eng katta bozor muvaffaqiyatsizligidir", – deya ta'kidlagan edi 2006-yilda bergan hisobotida (Stern Review, 2006). Shu sababli so'nggi yillarda ko'plab davlatlar iqtisodiyotni ekologik jihatdan toza va barqaror asosda rivojlantirishga e'tibor qaratmoqda. BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) 2008-yilda yashil iqtisodiyot konsepsiyasini rasmiy ravishda ilgari surgan. UNEP ta'rifi ko'ra, yashil iqtisodiyot – bu inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni oshirish bilan birga, ekologik xavflarni kamaytiradigan va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan iqtisodiy modeldir. Bu iqtisodiyot modeli uglerod chiqindilarini kamaytirishga, energiya va resurslardan samarali foydalanishga, barqaror qishloq xo'jaligi, yashil texnologiyalar va ekologik toza sanoatga e'tibor qaratadi (UNEP, 2008).

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish nafaqat ekologiya, balki iqtisodiy barqarorlik uchun ham foydali hisoblanadi. Xususan, 2022-yilda global miqyosda taxminan 13,7 million kishi qayta tiklanuvchi energiya sohasida band bo'lgan (IRENA, Annual review, 2023). O'zbekiston ham ushbu global jarayondan chetda qolmayapti. Mamlakatda so'nggi yillarda ekologik vaziyatni yaxshilash, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya ulushini ko'paytirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2019–2030-yillarga mo'ljallangan Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasining qabul qilinishi ushbu yo'nalishda muhim bosqich bo'ldi.

Adabiyotlar sharhi.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi so'nggi yillarda barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida keng o'rganilmoqda. Ushbu masala bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirish,

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish masalalari alohida o'rin egallaydi. O'zbekistonlik va xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, uning amaliy mexanizmlari va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati atroflicha tahlil qilingan.

Xususan, Xamidov (2022) o'z tadqiqotida yashil iqtisodiyotni shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tizimli ravishda ochib beradi. Muallifga ko'ra, yashil iqtisodiyot atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish bilan bir qatorda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi samarali model hisoblanadi. Unda innovasion texnologiyalardan foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish hamda davlatning faol tartibga soluvchi roli muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, muallif yashil iqtisodiyotni iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlik uyg'unligini ta'minlovchi strategik yo'nalish sifatida asoslaydi.

Boshqa bir tadqiqotda Zokirova (2023) yashil iqtisodiy siyosatning barqaror rivojlanish sharoitidagi ahamiyatini yoritadi. Muallif yashil siyosatni iqlim o'zgarishi, resurslar tanqisligi va ekologik muammolar fonida zarur deb hisoblaydi. Davlat strategiyalari, qonunchilik bazasi va ta'lim muassasalarining roli alohida ta'kidlanadi. Maqolada yashil iqtisodiyotga o'tishda jamiyat va oliy ta'lim muassasalarining faolligi muhim omil sifatida ko'riladi.

Jalolov (2021) tomonidan yozilgan monografiyada esa ekologiya va iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari ko'rib chiqiladi. Muallif iqtisodiy faoliyatning ekologik muvozanatga ta'sirini tahlil qilib, yashil iqtisodiyotga o'tish zaruriyatini asoslaydi. Kitobda barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun ekologik yondashuvlar, resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish mexanizmlari muhim deb topilgan.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi global barqaror rivojlanishning asosiy ustunlaridan biri sifatida keng tahlil qilinmoqda. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yashil iqtisodiyot "resurslardan samarali foydalanish, ijtimoiy inklyuzivlik va ekologik barqarorlikni ta'minlovchi iqtisodiy model" sifatida talqin etiladi (UNEP, 2011). Tadqiqotlarda qayd etilishicha, yashil iqtisodiyotga o'tish orqali yalpi ichki mahsulotning o'sishini sekinlashtirmagan holda ekologik xavflarni kamaytirish va bandlikni oshirish mumkin. Ushbu yondashuv rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy olimlardan biri – Ekins (2014) o'z tadqiqotlarida yashil iqtisodiyotni iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangi bosqichi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarni hal etishga, balki innovasion texnologiyalar, yashil investitsiyalar va yangi ish o'rinlari yaratish orqali uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Muallif, ayniqsa, davlat siyosatining muvofiqlashtirilgan bo'lishi va bozor mexanizmlarining ekologik maqsadlarga yo'naltirilishi zarurligini ta'kidlaydi.

MDH mamlakatlari doirasida ushbu masalaga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida rossiyalik olim Bobylevning ishlari alohida e'tiborga loyiq. U o'z tadqiqotlarida yashil iqtisodiyotni iqtisodiy xavfsizlik va milliy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida baholaydi (Bobylev, 2017). Muallifning fikricha, tabiiy resurslardan intensiv foydalanishga asoslangan an'anaviy iqtisodiy model uzoq muddatda barqaror bo'la olmaydi va uni ekologik cheklovlarni inobatga olgan yangi iqtisodiy model bilan almashtirish zarur. Bobylev yashil iqtisodiyotning joriy etilishi orqali ishlab chiqarish samaradorligi, aholi salomatligi va ijtimoiy farovonlikni oshirish mumkinligini ilmiy asoslaydi.

Shunday qilib, xorijiy va MDH olimlari tadqiqotlari yashil iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy va amaliy jihatdan pishiq ilmiy asosga ega ekanligini ko'rsatadi. Ularning qarashlari O'zbekiston sharoitida yashil transformatsiyani amalga oshirish, milliy rivojlanish strategiyalarini ekologik tamoyillar asosida takomillashtirish uchun muhim ilmiy-uslubiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, mavjud ma'lumotlarni yig'ish, ularni tahlil qilish va umumlashtirish usullari qo'llandi. Shuningdek, mavzuga oid davlat strategiyalari, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari o'rganilib, amaldagi real vaziyat bilan taqqoslab baholandi. Statistik ma'lumotlar asosida dinamik ko'rsatkichlar tahlil qilindi va O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ni joriy etish jarayonining asosiy tendensiyalari aniqlab olindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Insoniyat iqtisodiy o'sishni davom ettirar ekan, tabiiy resurslarning tanqisligi tobora sezilmoqda. BMT ma'lumotiga ko'ra, hozir insoniyat Yer tiklay oladigan resurslardan 1,7 baravar ko'p foydalanmoqda. BMT ga qarashli ekspertlar guruhi (International Resource Panel) tomonidan tayyorlangan "Global Resources Outlook 2019" hisobotida 1970-yildan 2017-yilgacha global xom-ashyo qazib olish hajmi 26 milliard tonnadan 92 milliard tonnagacha oshgani, ya'ni 4,5 barobar ko'paygani ko'rsatilgan (Global Resources Outlook, 2019). Bu holat resurslarning cheklanganlik sharoitida barqaror rivojlanishga zid, chunki ayrim resurslar qayta tiklanmaydi. Shu sababli, "yashil iqtisodiyot" tushunchasi global muammolarga ilmiy va amaliy yechim sifatida ilgari surilmoqda. Yashil iqtisodiyot modeli iqtisodiy o'sishning an'anaviy shakllaridagi ekologik salbiy oqibatlarni kamaytirishni, shu bilan birga inson farovonligini oshirishni maqsad qiladi. Uning asosiy maqsadlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval

"Yashil iqtisodiyot"ning asosiy maqsadlari

Tabiiy resurslardan barqaror foydalanish	Suv, yer, o'rmon va foydali qazilmalarni tejab-tergab ishlatish, kelajak avlodlar uchun resurslarni asrash.
Atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish	Sanoat, transport va energiya sohasidagi chiqindilarni, CO ₂ emissiyalarini kamaytirish va ekologik zararlarni minimallashtirish.
Qayta tiklanuvchi energiyaga o'tish	Quyosh, shamol, bioenergiya va boshqa toza energiya turlaridan foydalanishni kengaytirish, uglerodga bog'liqlikni kamaytirish.
"Yashil" ish o'rinlari yaratish	Qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik qishloq xo'jaligi kabi sohalarda yangi bandlik imkoniyatlarini yaratish
Chiqindilarni kamaytirish va aylanma iqtisodiyot	Mahsulotning butun hayotiy siklida chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash va qayta foydalanish jarayonlarini kengaytirish.
Ekologik xavfsizlik va sog'liqni muhofaza qilish	Toza havo va suvni ta'minlash, ekologik xavf omillarini kamaytirish va aholining salomatligini himoya qilish.

So'nggi yillarda O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyati paydo bo'ldi. 2025-yilning prezidentimiz tomonidan "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili" deb nomlanishi bejizga emas. Mamlakatimiz oldida bir qancha ekologik muammolar mavjud. O'zbekiston qishloq xo'jaligi asosan sug'oriladigan ekinlarga bog'liq – mamlakat yuzasidan olinadigan yer va suv resurslaridan taxminan 90% suv sug'orishga sarflanadi (FAO Uzbekistan). Suv yetishmasligi va yerlarning degradatsiyasi hosildorlikka jiddiy tahdid soladi, shu sababli suvni tejaydigan (tomchilab sug'orish va boshqa texnologiyalar) yechimlarni qo'llash majburiy hisoblanadi. Bundan tashqari, O'zbekistonning CO₂ chiqindilari global o'rta ko'rsatkichdan past bo'lsada, iqtisodiy o'sish bilan birga emissiyalar oshishi mumkin. Iqlim risklarini kamaytirish uchun ishlab chiqarish va energiya tizimini past-karbon yo'lga o'tkazish lozim.



1-rasm. O'zbekiston va Jahon miqyosida Yillik CO₂ chiqindilari ko'rsatkichi
(World Bank Open Data)

“Yashil transformatsiya” global va mintaqaviy talab sifatida shakllanmoqda. Investitsiya oqimlari va moliyalashtirish endi ko'proq “yashil” loyihalarga qarab oqmoqda: xalqaro moliyaviy tashkilotlar past-karbon yechimlarni ustun qo'yishmoqda. O'zbekistonda Jahon banki va boshqa xalqaro moliyalashtiruvchilar bilan hamkorlik orqali 2000MW quyosh va 500MW shamol energiyasi loyihalarini rivojlantirish kabi katta investitsiya tashabbuslari mavjud (World Bank Group, 2022).

Ushbu muammolarni hisobga olgan holda yurtimizda muhim davlat strategiyalari va hujjatlar qabul qilindi. 2018-yil 2-oktabrda iqlim o'zgarishi oqibatlarini bartaraf etish va atmosfera havosining ifloslanishini kamaytirish bo'yicha Parij kelishuvi ratifikatsiya qilindi (Qonun, 2018). 4-oktabr kuni PF-5863-son Prezident Farmoni bilan “O'zbekiston Respublikasida 2019-2030-yillarda Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi” tasdiqlandi (Farmon, 2019). Strategiyada 7 ta ustuvor maqsad belgilangan bo'lib, 2030-yilgacha YaIM energiya sig'imini 2 baravar kamaytirish, elektr energiyasi ishlab chiqarishda quyosh va shamol energiyasi ulushini 25-30% ga yetkazish vazifalari shular jumlasidandir.

O'zbekiston 2019-2030 strategiyasi doirasida “yashil iqtisodiyot”ga o'tishni davlat darajasida maqsad qilgan bo'lsada, bir qator to'siqlar uchramoqda:

1. Moliyalashtirish va investitsiya yetishmasligi. Yashil loyihalar – quyosh panellarini, shamol parraklarini o'rnatish, chiqindini qayta ishlash texnologiyalari, energiya samaradorligi, tomchilab sug'orish klasterlari – dastlab juda katta sarmoya talab etadi. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bunday loyihalarni moliyalashtirish davlat byudjetining katta qismini tashkil etadi. 2023-yilda respublika birinchi marta yashil obligatsiya chiqardi va ushbu yil ichida davlat darajasida UZS 4,25 trillion miqdorda yashil obligatsiya chiqarilgani xabar qilingan (Green Bond Report, 2023). Xorijiy investitsiyalar oqimini kuchaytirish va ularni yashil texnologiyalarga yo'naltirish maqsadida davlat kafolatlari va subsidiyalari ajratilmoqda.

2. Texnologik eskirish va innovatsiya pastligi. Energiya, sanoat, transport tarmoqlarida eski, samaradorligi past texnologiyalar ulushi yuqori. Ko'plab korxonalar ekologik toza ishlab chiqarish liniyalarini o'rnatishga texnik va moliyaviy imkoniyatga ega

emas. Yashil texnologiyalarni keng joriy etish uchun texnik imkoniyat va mahalliy ishlab chiqarish zaiflik qiladi.

3. Aholi va biznesning ekologik ong darajasi pastligi. Barqaror iste'mol, chiqindi saralash, energiya tejash odatlari hamda uzoq muddatli investitsiyalarga nisbatan ishonch pastligi "yashil o'tish"ni sekinlashtiradi. Aholining chiqindini saralash va qayta ishlashga oid xulqi amaldagi chiqindi hajmlari va past qayta ishlash foizlari bilan tasdiqlanadi – 2022-yilda atrof muhitga tushayotgan kommunal chiqindilarning faqat 1,8 million tonnasi (26%) qayta ishlangan (The National E-waste Monitor, 2024).

4. Normativ-huquqiy baza va nazorat mexanizmlarining yetishmasligi. Yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo'llab-quvvatlovchi qonunlar qabul qilingan, ammo ularning ijrosi, standartlar sertifikatlashtirish tizimi va nazorat mexanizmlari to'liq shakllanmagan yoki amaliyotda ularni bajarish muammolari mavjud.

Ba'zi muammolarga duch kelayotganimizga qaramasdan, yurtimizda "yashil transformatsiya"ni amalga oshirish uchun bir qancha afzalliklar mavjud. Masalan, Xitoy Xalq Respublikasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish jarayonida hududlarining yuqori urbanizatsiyalashganligi, aholi zichligining katta bo'lishi hamda foydalaniladigan yer resurslarining cheklanganligi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli mamlakatda quyosh energetikasini rivojlantirish strategiyasida shaharsozlik infratuzilmasi bilan integratsiyalashgan "distributed solar PV systems", ya'ni binolar tomiga, balkonlariga va sanoat obyektlari ustiga o'rnatiladigan fotoelektr panellarini keng joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida shakllangan. Mazkur yondashuv mavjud vertikal arxitektura va binolar qoplamasidan yuqori samaradorlik bilan foydalanish imkonini beradi hamda yer resurslariga bosimni kamaytiradi.

O'zbekiston sharoitida esa hududning tabiiy-geografik xususiyatlari mutlaqo boshqa modelni qo'llashga imkon yaratadi. Mamlakat maydonining katta qismi – ayniqsa Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlari – kam o'zlashtirilgan, cho'l va yarim cho'l zonalaridan iborat bo'lib, iqtisodiy faolligi past va alternativ foydalanish talabi nisbatan cheklangan. Ushbu landshaftlar keng maydonlarda yirik quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalarini barpo etish uchun muhim hududiy ustunlikni ta'minlaydi. Shuningdek, O'zbekiston yiliga o'rtacha 300 kun quyoshli ob-havoga ega. Natijada, O'zbekistonning quyosh energetikasini rivojlantirish strategiyasi Xitoy modelidan farqli ravishda, asosan katta yer maydonlariga ega, markazlashtirilgan sanoat miqyosidagi quyosh parklarini qurishga tayanadi. Bu yondashuv ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, energiya quvvatlarini tez kengaytirish hamda milliy elektr tarmog'iga katta hajmda "yashil energiya" uzatish orqali energetika xavfsizligini mustahkamlash imkonini beradi.

2023-yil 6-martda O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi energetika hamkorligi doirasida muhim bosqich sifatida Toshkent viloyatida 400 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasining qurilish ishlari boshlangan. Kelishuvlarga muvofiq, mazkur loyihaning loyihalash, moliyalashtirish, qurilish va 25 yil davomida ekspluatatsiya qilish jarayonlari Saudiyaning yetakchi energetika kompaniyasi ACWA Power tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, 1 000 MVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyasini Samarqand viloyatida, 400 MVt quvvatli stansiyani Toshkent viloyatida hamda 1200 MVt quvvatga teng mustaqil elektr energiyasi saqlash tizimini (Battery Energy Storage System – BESS) barpo etish bo'yicha sarmoya bitimlari imzolangan. Loyihaning amalga oshirilishi mamlakat uchun qator iqtisodiy va ijtimoiy foydalar keltirishi kutilmoqda. Jumladan:

- qurilish bosqichida 3000 dan ortiq, ekspluatatsiya davrida esa 300 ta yangi ish o'rni yaratiladi;
- yiliga 3,5 milliard kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi;
- natijada yiliga 1 milliard kub metr tabiiy gaz tejab qolinadi (Kun.uz).

O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoqlardan biri bo'lib, u mamlakat YalMining taxminan chorak qismini tashkil etadi. Shu bilan birga, bu soha suv

resurslarining 85–90 foizini iste'mol qiluvchi asosiy iste'molchi hisoblanadi. Mayjud qurg'oqchil iqlim, daryolardagi suv miqdorining kamayishi, yerlarning sho'rlanishi va suv tanqisligi kabi omillar ushbu muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Suvdan foydalanish samaradorligini oshirish O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasida muhim o'rin tutadi. Xususan, "Har bir tomchi suv – bebaho" dasturi, BMT va Jahon banki bilan hamkorlikdagi "Water Efficiency Improvement Project" loyihalari orqali suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. WRMIP doirasida suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etish, suv monitoringi va boshqaruvini raqamlashtirish qo'llab-quvvatlandi. Loyiha natijasida 2020-2023-yillarda 55 ming gektar maydonga tomchilatib sug'orish tizimi tatbiq etildi (World Bank Group). Shuningdek, hukumat qarori asosida 2021-2023-yillarda jami 1 million gektar yer maydonida tomchilatib sug'orish tizimi joriy etildi. Buning natijasida, qishloq xo'jaligida suv sarfi o'rtacha 40% ga qisqarib, hosildorlik 30-40% oshgan (gazeta.uz).

1-jadval

Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishdan olinadigan natijalar va ta'sirlar (Green Bond Report, 2023)

Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish uchun subsidiyalar	2021	2022	2023	Umumiy
Suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qoplangan yer maydoni(ga)	4107	1772	7463	13341
Suvni tejaydigan texnologiyalar bilan ta'minlangan fermerlar soni	32	77	321	430
Suvni tejashning o'rtacha umumiy ko'rsatkichi(m ³)	8368964	3682218	14844373	26895555

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, islohotlar natijasida 2023-yilda 13 ming gektardan ortiq yer maydoni suvni tejaydigan texnologiyalar bilan ta'minlangan hamda 3 yil ichida suv tejovchi tizimlarni qabul qilgan fermerlar soni 10 baravarga oshgan. Emg muhimi, mazkur texnologiyalar orqali deyarli 27 million m³ suv tejashga erishilgan, bu O'zbekiston sharoitida strategik natija hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston uchun "yashil iqtisodiyot"ga o'tish bugungi kunda nafaqat ekologik zarurat, balki iqtisodiy taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda moliyaviy qiyinchiliklarni hisobga olgan holda, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni yanada kengaytirib, grantlar va imtiyozli kreditlarni jalb etish lozim. Mamlakatimizda, asosan, xorijiy investorlar uchun imtiyozlar beriladi, ammo yashil texnologiyalarga sarmoya kiritayotgan mahalliy tadbirkorlar uchun ham soliq imtiyozlari, subsidiyalar ajratish tizimini kengaytirish orqali xususiy sektorni rag'batlantirish zarur. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibotni kengaytirish, ekologik me'yorlarga rioya qilgan, yashil texnologiyalarni qo'llagan korxonalarni rag'batlantirish va ularni jamoatchilikka tanishtirish aholining ekologik ong va madaniyatini oshirishda samarali xizmat qiladi. Bundan tashqari, qonunlar ijrosini ta'minlovchi mustaqil ekologik inspeksiya organlarini mustahkamlash, har yili yashil iqtisodiyot bo'yicha yutuq va muammolarni yorituvchi ochiq hisobotlarni e'lon qilish yurtimizning "yashil transformatsiyasi" tezlashishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish katta imkoniyatlarga

ega bo'lib, bu nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini yaratadi. Yashil siyosatning izchil amalga oshirilishi kelajakda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, aholi farovonligini yaxshilash hamda sog'lom ekologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Stern Review: The Economics of Climate Change (2006). <https://www.theguardian.com/environment/2007/nov/29/climatechange.carbonemissions>

International Renewable Energy Agency-Annual review (2023). <https://www.irena.org/Digital-content/Digital-Story/2023/Sep?A-decade-of-progress-Renewables-jobs-on-the-rise/>

Bobylev, S.N. (2017). Zelyonaya ekonomika: vyzovy i perspektivy ustoychivogo razvitiya. Moskva: Ekonomika.

Ekins, P. (2014). Green Economy: Pathways to Sustainable Development. London: Routledge.

United Nations Environment Programme (UNEP) (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Nairobi: UNEP.

Xamidov, A. (2022). Yashil iqtisodiyot va uning rivojlanish omillari. Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, 4(2), 45–52.

Zokirova, S. (2023). Barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiy siyosatning o'rni. Iqtisodiy tadqiqotlar, 1(3), 61–68.

Jalolov, B. (2021). Ekologik barqaror rivojlanish va iqtisodiy o'sish. Toshkent: Fan nashriyoti. Global Resources Outlook (2019). https://www.resourcepanel.org/sites/default/files/documents/document/media/unep_252_global_resource_outlook_2019_web.pdf

Food and Agriculture Organization Country Profiles: Uzbekistan <https://www.fao.org>

Parij kelishuvi. – BMT Iqlim o'zgarishi bo'yicha konvensiyasi (UNFCCC), 2015.

World Bank Open Data. https://data360.worldbank.org/en/indicator/OUID_CB_CO2_INCLUDING_LUC_PER_CAPITA?view=trend&average=WLD&country=UZB

World Bank Group <https://www.worldbank.org/en/news/pressrelease/2024/05/21/uzbekistan-to-build-new-solar-plant-and-first-battery-energy-storage-system-with-world-bank-group-support>

Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qilish to'g'risida O'RQ-491-sonli qonun. <https://lex.uz/ru/docs/-3924460#-3924565>

2019 – 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida PQ-4477-sonli prezident qarori <https://lex.uz/docs/-4539502>

1st Report on Uzbekistan 2023 Green Bond. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/202507/1st_report_on_uzbekistan_2023_green_bond_eng_9.pdf

The National E-waste Monitor 2024. <https://ewastemonitor.info/the-national-ewaste-monitor-2024-uzbekistan/>

World Bank Group (2022). Uzbekistan: Scaling-Up Renewable Energy and Energy Efficiency Investments. Washington, DC: World Bank. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview>

<https://kun.uz/en/30864927#!>

<https://www.stat.uz>

<https://www.gazeta.uz>

<https://www.unep.org/explore-topics/resource-efficiency/what-we-do/policy-and-strategy/green>